

Boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari RKTU Toshkent shahar filiali ilk magistrarlari bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

// 07 May 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/boshqaruvi-raisining-birinchi-o-rinbosari-rktu-toshkent-shah>



"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Yevgeniy Korjikov va D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahridagi filialining ilk magistrarlari o'rtasida uchrashuv tashkil etildi.



Uchrashuvda mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, kimyo sanoati tarmog'ini modernizatsiya qilish jarayonlarida yuqori malakali kadrlarning o'rni hamda ilm-fan, ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalalari xususida atroflicha fikr almashildi.



Shuningdek, yosh mutaxassislarning kelgusidagi mehnat faoliyati, ilmiy izlanishlari, innovatsion g'oyalari va rejaları muhokama qilindi.

Ochiq va samimiy ruhda o'tgan muloqotda magistrilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olib, kelgusida kimyo sanoati korxonalarida amalga oshirilayotgan zamonaviy loyihalar yuzasidan fikr bildirishdi.



Tadbir so'nggida magistr'larga diplomlar tantanali ravishda topshirildi. Yevgeniy Korjikov bitiruvchilarni ushbu muhim va quvonchli voqea bilan samimiy tabriklab, ularning kelgusidagi mehnat va ilmiy faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.



